ABDUMALIK KUCHKINOV, SHOHSANAM MATUPAYEVA

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUMALIK KUCHKINOV, MATUPAEVA SHOHSANAM

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Monografiya

Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2023

UDK: 37.013
KBK: 74.262.01
K-99

Kuchinov A.Yu, Matupaeva Sh.Z

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining huquqiy ekologik kompetensiyalarini interfaol usullar orqali rivojlantirish. [Matn]: Monografiya / A.Yu.Kuchkinov, Sh.Z Matupaeva. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti. 2023. – 132 b.

Mazkur monografiyada o‘quvchilarga sharq mutafakkirlari merosidan foydalanib boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining huquqiy ekologik savodxonligi va ekologik kompetensiyasini rivojlantirish yoritib berilgan. Muallif o‘quvchilarni interfaol metod va usullar vositasida ekologik tarbiyalash texnologiyalari, tabiiy fanlar darslari, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni ekologik tarbiyalash texnologiyalari tizimini ishlab chiqqan.

Monografiya talabalar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogika mutaxassisligi magistrantlari hamda oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar va mazkur yo‘nalishda izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Mardonov Shukurullo – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Avazov Sherimmat – pedagogika fanlari nomzodi, professor.

Fariddun Ochilov – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universitetining 2023-yil 14-martgi Ilmiy texnik kengashida ma’qullangan (2-sonli bayonnoma) va nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9267-2-1

© A.Yu.Kuchkinov, Sh.Z Matupaeva 2023.
© “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2023.

SO‘Z BOSHI

XXI asr demografiya, fan va texnika taraqqiyoti asri bo‘ladi. Bu asrda inson texnika vositalari bilan tabiatga ta’sir etadi. Inson o‘z manfaatlarini qondirish maqsadida tabiatdan ko‘proq boylik (manfaat) olishni o‘ylaydi. Bu jarayonda inson tabiiy zaxiralarning miqdori, uni holatini o‘ylamaydi. Oqibatda zaxira miqdori kamayib sivilizatsiyani davom etishi xavf ostida qoladi. Bu holni yuz bermasligi uchun tabiat bilan insoniyat orasidagi munosabatni ijobiy yo‘nalishga qaratish zarur. Shu sababdan ham XXI asrda ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Inson tabiatning bir qismi bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘zining hayot faoliyatida yangidan-yangi usullar bilan tabiatga ta’sir qilishni davom ettirmoqda. Bu esa ekotizim holatining o‘zgarishiga, ayniqsa, tabiatdagi sifat va miqdor ko‘rsatkichlari buzilishiga olib kelmoqda. Bunday faoliyat natijasida er sayyorasining holati: atmosfera havosi (iqlimi), tuproqlar, suvlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi o‘zgarib, havo, suv va tuproqlarning ifloslanishi hamda ularni himoyalash zaruriyati vujudga keldi. Agar insoniyatning tabiatga salbiy ta’siri shunday davom etadigan bo‘lsa, o‘z navbatida, mahalliy, mintaqaviy va global darajada ekologik inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Orol dengizining qurishi va Orolbo‘yi ekotizimlarining halokati bunga yorqin misol bo‘lib, Orolning qurigan o‘rnida zararli qumli-tuzli hududlar (Orol qum) paydo bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar uchun ko‘plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, Orolbo‘yi aholisi orasida turli xavfli kasalliklarning ko‘payishi, chorva mollari va boshqa hayvon turlarining nobud bo‘lishi, shuningdek erlarning qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsizligi va boshqa jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tabiat taraqqiyoti va insoniyat sivilizatsiyasining, shuningdek O‘zbekiston tabiati va jamiyatining buguni va kelajagi ko‘p jihatdan ekologik muammolarning hal etilishiga, barqaror rivojlanish dasturlari amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020-y.) Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha boshlangan misli ko‘rilmagan ishlarni davom ettirish, dengizning qurigan tubida o‘rmonzorlarni kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida “yashil belbog‘”lar barpo etish, sanoat rivojining ekologiyaga ta’sirining oldini olish bo‘yicha 2025-yilgacha mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, nufuzli xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, Ekologiya kodeksi loyihasini ishlab chiqish lozimligini alohida ta’kidlagan edi[1]. Sh. Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta’kidlaganlaridek, “Biz Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e’lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa “Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni” sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lardi”[2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”[3], deb ko‘rsatilganki, bu har bir fuqaroning tabiat oldidagi burchini hayot tarziga aylantirishi lozimligi anglatadi. Shu sababli mamlakatimizda oxirga yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019 yil 30 oktyabr.

[2] “Xalq so‘zi” gazetasi № 202 24.09.2020 http://xs.uz/uz/site/newspaper?page=6

[3] O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, “Xalq so‘zi”, 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.

sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tashabbusi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining iqlim o'zgarishi bo'yicha "Parij bitimini ratifikatsiya qilish, 2019 – 2028-yillarda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish va 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyalari, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishish kabi ulkan maqsadlar yo'lida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi davlat boshqaruvi tizimi shakllantirildi, bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, strategik va dasturiy hujjatlar yangilandi[4]. Prezident Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta'kidlaganidek, "Biz Orol bo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etadi. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani "Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni" sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi"[5]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori[6],

[4] O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 2 oktyabrdagi iqlim o'zgarishi bo'yicha "Parij bitimini (Parij, 2015 yil 12 dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'RQ-491-son qonuni

[5] Xalq so'zi» gazetasi № 202 24.09.2020 http://xs.uz/uz/site/newspaper?page=6

[6] Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi Davlat ta'lim standarti. -T. 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son[7], Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son[8], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmonlari[9], Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 434-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[10], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha Rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmoni[11], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni[12] va shu kabi me’yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ayniqsa, ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududidagi ekologik

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi, “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-son qarori.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-son farmoni.

[10] O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, “Xalq so‘zi”, 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097 son farmoni.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim – tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108 – son farmoni.

muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga yo‘naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi[13]. Zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu o‘quv jarayonining barcha sohalarini ko‘kalamzorlashtirish bo‘lib, uni amalga oshirish uzluksiz ekologik ta’lim va ma’rifat sharoitida mumkin. Uzluksiz ekologik ta’lim tizimining eng muhim bo‘g‘ini maktab bo‘lib, u erda tabiiy muhitga ijtimoiy va shaxsiy qadriyat sifatida ongli, mas’uliyatli munosabatda bo‘lish asoslari yaratilishi kerak. Biroq, bu faqat o‘qituvchilarning o‘zlari to‘g‘ri tayyorlangan holda amalga oshirilishi mumkin. Har yili maktablarga yosh o‘qituvchilarning ishga kelishini inobatga olgan holda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash butun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish omillaridan biridir.

[13] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521). 1-2 betlar.

I BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1-§ O‘quvchilarga Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanib ekologik-huquqiy tarbiya berishning tarixiy ijtimoiy-pedagogik asoslari

O‘quvchilarga ekologik va huquqiy ta’lim-tarbiya berishda maktab, oila, mahalla hamkorligini takomillashtirishga oid tushunchalarni shakllantirishda xalqimizning milliy qadriyatlari, atoqli olim va mutafakkirlarning bu boradagi fikr va o‘gitlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois o‘quvchilarga bu borada ekologik va huquqiy bilim berish muhim ahamiyatga ega. Tabiat hayot maskani, bebaho ne’matlar manbai bo‘lib, uni muhofaza qilish har bir insonning burchidir. Bu borada xalqimizning o‘ziga xos milliy-tarixiy an’analari bor.

Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda bu muammoning yechimiga intilishi uzoq tarixga ega. Zero, “sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylashi qanchalik zarur bo‘lsa.... er va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhim. Er, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e’zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo‘lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan” [14; 531-b.].

Tarixiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida insoniyatning tabiat bilan muloqoti, tabiat bilan jamiyatning o‘zaro aloqadorligi, bir-biriga ta’siri uzviy va uzluksiz bo‘lib, abadiy muammolar sirasiga kiradi. Insoniyat tarixi tabiat tarixi bilan uzviy bog‘langan[15,][16,][17]**Ошибка! Источник ссылки не найден.**. Bu haqiqat ETning tarixiylik prinsipini aks ettiradi.

[14] Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. 4-t. –Toshkent: O‘zbekiston. 1996.– 350 b.

[15] Turdiqulov E.O., Turdiqulov U.E. Markaziy Osiyoda ekologik ta’lim taraqqiyoti. – Toshkent: “Fan”, 2005. – 308 b.

[16] Avezov Sh. Qishloq maktablari yuqori sinf o‘quvchilarini o‘lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash: Ped. fan. nomz ... diss. – Toshkent. 1993. – 161 b.

[17] Avazov Sh., Saydamatov F. Yekologiya va atrof-muhit muhofazasi. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik (4-

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, uni ijobiy hal etish yo‘llaridan biri-bu huquqiy muhofaza etish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirishga oid manbalarni o‘rganish natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirish holati tahlil qilindi va bu borada ilmiy-tadqiqot o‘tkazilishi lozimligi nazariy asoslantirib berildi.

Insonning ekologik madaniyati umumiy ta’lim natijasida shakllanadi. Zero, tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’sirini tushunish ilmiy munosabatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida insonning tabiatdagi o‘rni ochib berilgan.

2022-yilda chiqarilgan eng so‘nggi Qizil kitobining onlayn versiyasi qiziqish uyg‘otadi, chunki har bir bo‘lim va hatto har bir alohida maqola Qo‘shimcha ma’lumot sarlavhasi bilan birga bo‘lib, diapazonlar va ro‘yxatlar bo‘yicha ma’lumotlar bazalariga tematik kontekstli havolalarni o‘z ichiga oladi. qo‘riqxonalardagi turlari. Bu nafaqat ushbu tur haqida, balki tak songa kiritilgan boshqa turlar haqida ham qo‘shimcha ma’lumot olish, mamlakat, ma’lum bir mintaqa yoki qo‘riqxonada tarqalishini baholash imkonini berdi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun axborot kompetensiyasini o‘zlashtirish ekologik kompetensiya bilan parallel ravishda amalga oshirilishi kerak. Birinchisi, kerakli materialni malakali izlash va uni kompyuter taqdimotlari orqali taqdim etishga yordam beradi. Ekologik kompetensiya esa boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini tarbiyalash bilan bog‘liq mintaqaviy muammolarni hal qilishda ekologik bilim, ko‘nikma va munosabatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ikkala

---

nashri). – T.: «ILM ZIYo», 2017. — 232 b.

kompetensiyani shakllantirish zarurati insoniyatning hayot sifati va sog‘lig‘i bilan bog‘liq, shuning uchun u bir nechta fanlarni o‘rganish vazifalaridan biridir.

Axborot kompetensiyasi boshlang‘ich ta’lim ning o‘quv jarayonida namoyon bo‘ladi, chunki bu bosqichda o‘qitish insonning keyingi barcha faoliyatida quriladigan poydevordir

AKTdan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tadqiqotchilik qobiliyatlarini yanada to‘liq rivojlantiradi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni axborot bilan ishlashga o‘rgatadi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, axborot jamiyati yutuqlari bilan tanishtiradi.

AKTdan foydalanish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun odatiy holga aylanishi mumkin, o‘qituvchilar uchun esa ish normasi — bu, mening fikrimcha, maktabdagi innovatsion ishlarning eng muhim natijalaridan biridir.

Buning uchun boshlang'ich ta'lim ekologik bilimlarni, ekologik tafakkur asoslarini shakllantirish, ekologik kompetentsiya va ekologik ongni shakllantirish uchun qulay davrdir. Talabalarda ekologik bilim va ekologik ongni rivojlantirishning samarali usuli bu loyihalar usulidir. Loyiha yordamida talabalar tabiiy ob'ektlarni mustaqil ravishda o'rganadilar, inson va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni aniqlaydilar, atrofdagi dunyo ob'ektlarini saqlash muhimligini tushunadilar.

Tavsiya, jamiyatda o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirish, eng avvalo, ekologik ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligini takomillashtirish tizimini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 36 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, “Xalq so‘zi”, 2020-yil 24-sentyabr, 202 (7704)-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi. 2020-yil 25-yanvar. № 19 (7521). 1-2 betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.
6. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi Davlat ta’lim standarti. -T. 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi, “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-son farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097 son farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim – tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 – son farmoni.

11.O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-oktyabrdagi iqlim o‘zgarishi bo‘yicha “Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-491-son qonuni

12.“Respublikada ekologik ta’limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari konsepsiyasi” – // Ekologiya xabarnomasi. – 2006. – 1-son. -B. 8-27.

13.Abu Ali ibn Sino. “Tib qonunlari”. Uch jildlik saylanma. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.

14. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993. – 187 b.

15. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993. – 187 b.

16. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. — Toshkent: Fan, 1968. –485 b.

17. Avazov Sh., Saydamatov F. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik (4-nashri). – T.: «ILM ZIYo», 2017. — 232 b.

18. Avezov Sh. Qishloq maktablari yuqori sinf o‘quvchilarini o‘lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash: Ped. fan. nomz ... diss. – Toshkent. 1993. – 161 b.

19. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqad Mahkam tarjimasi. – Toshkent: “Sharq”, 2001. –- 384 b.

20. Al – Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. 4 - kitob. Al – Jome’ as – Sahih (Ishonarli to‘plam). Arabchadan Z.Ismoil tarj. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – 560 b.

21. Bahramov A. “Koinotga oid mavzular” // Boshlang‘ich ta’lim – Toshkent. — 2008. — 4-son. — B. 28-29.

22. Boymirzaev K.M., Abduraxmonov B.M. Tabiatshunoslik darsida ekologik-geografik madaniyatni shakllantirish // Boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari va ularning echimlari: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Namangan: NamDU, 2003, – B. 58-59.

23. Djuraev R.X., Turdiqulov E.O. Ekologik ta’limning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo‘llari //Uzluksiz ta’lim. -Toshkent. -2004. – 6-son. –B. 3-9.

24. Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur noma. 1 qism. – Toshkent. O‘zbekiston, 1948. – 250 b

25. Isaqulova N.J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslarir. Ped.fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2006. –186 b.

26. Ismatov I.Sh. O‘quvchilarda huquqiy savodxonligini shakllantirish (anorganik kimyo ta’limi misolida). Ped. fan. nom ... diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 22 b.

27. Ismatova N. va b. Tarbiya: 1-sinf o‘quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 b.

28. Ismatova N. va b. Tarbiya: 2-sinf uchun darslik. 1-nashr. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2020. — 80 b.

29. Ismoilov A., Ahmadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. — T.: O‘qi-tuvchi, 1997.- 120 b.

30. Ismoilova G. Xalqimizning ekologik an’analari va ularni tiklashning nazariy va amaliy masalalari /Xalq ta’limi. – Toshkent. -2007. -1-2 sonlar. – B. 97-98.

31. Ismoilova D. “Ekologik tanglik-umumbashariy muammo” // Xalq ta’limi. – Toshkent. -2007. – 4 – son. – B. 91-95.

32. Kamolxo‘jaev Sh.M. Tabiatshunoslik asoslari. — T.: Moliya, 2002. — 332 b.

33. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. 4-t. –Toshkent: O‘zbekiston. 1996.– 350 b.

34. Karimov Yu. Ekologicheskoe obrazovanie i vospitanie v vecherney shkole pri izuchenii kursa fiziki. Avtoref. diss... kand. ped. nauk. – Moskva, 1989. –16 s.

35.Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) o‘quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan

foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Ped. fan. nom ... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 22 b.

36. Qosimova K. Ona tili: 2-sinf uchun darslik/A. Ne'matova va boshq. Mas'ul muharrir T. Tog'aev. – Qayta ishlangan o'n to'rtinchi nashri. – T: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018. –144 b.

37. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. -Toshkent, 2001. - 767 b.

38. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. -Toshkent, 2001. - 767 b.

39. Mirzaxmedova Sh.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 22 b

40. Musaeva M.E. O'quvchilarda tabiat ne'matlariga muhabbatni shakllantirish (5-9 — sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish misolida): Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent: O'zDJTU, 2011. – 193 b

41. Muhammad ibn Muso Al – Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Matematika, astronomiya, geografiya. – Toshkent: Fan, 1983. – 470 b.

42. Rafiqov A.A. Tabiatda ekologik muvozanat. – Toshkent: Fan, 1990. –88 b.

43. Rahimqulova M.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalash: Ped. fan. nomz ... diss. – Toshkent, 2000. – 140 b.

44. Rahmatova H.A. O'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (VII–IX sinf-lar misolida): Ped. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. -22 b.

45. Rahmatullaeva M.D. O'smirlarda sinfdan tashqari ishlar jarayo-nida tabiat estetikasiga qiziqishlarini shakllantirish. Ped. fan. nomz ... diss. – Toshkent, 2005. – 202 b.

46. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohazalar. –Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 42 b.

47. Saidboboev Z.A. Tarixiy geografiya. – T.: Noshir, 2010. – 165 b.

48. Salimov D “Tabiatga muhabbat – vatanga muhabbat” //Boshlang‘ich ta’lim – Toshkent. -2009. — 8-son. -B.22-23.

49. Turdiqulov E.O., Turdiqulov U.E. Markaziy Osiyoda ekologik ta’lim taraqqiyoti. – Toshkent: “Fan”, 2005. – 308 b.

50. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / E.Begmatov, A.Madvaliev va b.; A.Madvaliev tahriri ostida. T.2 – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 382 b.

51. Umumta’lim maktablarida ijtimoiy o‘quv fanlarni o‘qitishda ekologik ta’lim–tarbiyani amalga oshirishning integrativ dasturi. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, RTM., 2000. -34 b.

52. Xolmo‘minov J. Ekologiya va qonun. — Toshkent: Adolat, 2000. – 352 b.

53. Shermuxamedova S. va boshq. Tarbiya 4: darslik / — Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. — 96 b.

54. Shirinov M. O‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda tashviqot usullari // Xalq ta’limi. – Toshkent. – 2014. – 2-son. – B. 94–99.

55. Ergashev A., Ergashev T.: Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 433 b.

56. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). 2-nashri. – Toshkent: Fan, 1972. – 964 b.

MUNDARIJA	
SO‘Z BOSHI……	**3**
I BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA……	**8**
1.1-§ O‘quvchilarga Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanib ekologik-huquqiy tarbiya berishning tarixiy ijtimoiy-pedagogik asoslari……	**8**
1.2-§ Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetensiyasini axborot texnologiyalar orqali rivojlantirishning pedagogik asoslari……	**22**
1.3-§ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini tarbiyalash tamoyillari……	**28**
1.4-§ Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetensiyasini axborot texnologiyalari foydalanish……	**37**
1.5-§ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik huquqiy savodxonligining zamonaviy muammolar……	**44**
1.6-§ Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetensiyasini axborot texnologiyalari tabiiy fanlar darslarida shakllantirish usuli sifatida……	**53**
II BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING USUL, METOD VA VOSITALARI……..	**65**
2.1-§ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini shakllantirish usullari……..	**65**
2.2-§ Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ekologik kompetensiyasini axborot texnologiyalari orqali rivojlantirish tamoyillari……	**75**
2.3-§ Boshlang‘ich sinf boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirishning mezonlari.	**86**
2.4-§ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ekologik mas’uliyatini shakllantirish usuli sifatida 1-4 sinf tabiiy fan darslarida AKTdan foydalanishning pedagogik shartlari……..	**97**
2.5-§ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirish usullari va shakllari	**103**
2.6-§ Bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha ishlarini tashkil etish metodi……	**111**
XULOSA…….	**123**
ADABIYOTLAR RO‘YXATI……	**125**

ABDUMALIK KUCHKINOV, MATUPAEVA SHOHSANAM

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING HUQUQIY EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI INTERFAOL USULLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Monografiya

Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo” - 2023

Muharrir: *Xolsaidov F.B*
Nashrriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018
Bosishga 24.03.2023. da ruxsat etilgan. Bichimi 60x90
“Combria” garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog’I 9. Nashr bosma tabog’i 8,25
Adadi 200 nusxa.

Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo’limida chop etildi.
Manzil Toshkent shahari, Farhod ko’chasi, 6-a uy.

Tel.: 90-372-85-17

Muallif va nashriyot roziligisiz chop etish ta’qiqlanadi

ISBN 978-9943-9267-2-1

